

LINGUISTIC AND LITERARY ANALYSIS OF THE ENGLISH TRANSLATION OF ISAJON SULTON'S SHORT STORY "AVLIYO (THE SAINT)"

Guzaloy Asqar qizi SOBIROVA,

Lecturer, Department of Western Languages,
Tashkent State University of Oriental Studies,
Tashkent, Uzbekistan

ISAJON SULTONNING "AVLIYO" HIKOYASI INGLIZCHA TARJIMASINING LINGVISTIK VA ADABIY TAHLILI

Go'zaloy Asqar qizi SOBIROVA,

G'arb tillar kafedrası o'qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОГО ПЕРЕВОДА РАССКАЗА ИСАЖОНА СУЛТАНА «СВЯТОЙ»

Гузалой Аскар кизи СОБИРОВА

Преподаватель кафедры западных языков
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан Beautifullife6991@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sobirova G. A. Isajon Sultonning "Avliyo" hikoyasi inglizcha tarjimasining lingvistik va adabiy tahlili // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 172-183.

<https://doi.org/10.36078/1762332566>

Received: September 09, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article examines the lexical and stylistic subtleties of literary translation between Uzbek and English through Isajon Sultan's short story "*Avliyo*." The study analyzes linguistic, syntactic, idiomatic, and stylistic features in the English translation, supported by illustrative examples. Particular attention is paid to word choice, sentence structure, and the preservation of cultural and national symbols. The translator's task is emphasized as bringing the literary work to international readers while maintaining the author's national identity, worldview, and spiritual essence. The central discussion focuses on conveying the story's semantic and aesthetic depth without losing its cultural context or national color. The relevance of this research within comparative literature and translation studies lies in the growing importance — especially in the era of globalization — of introducing masterpieces of Uzbek literature to the world while preserving their distinctive national spirit through high-quality translation. Although the imagery, symbolism, and meaning of "*Avliyo*" have been widely discussed in Uzbek literary criticism, its English translation has not yet received detailed artistic and linguistic analysis. This article provides a comparative study of the translation based on principles of translation theory and stylistic analysis, aiming to identify, examine, and propose solutions to various cultural and linguistic challenges encountered in the process of literary translation.

Keywords: literary translation; linguistic analysis; cultural layer; cultural code; idiomatic expressions; symbolic meanings; syntactic analysis; translation skills.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy tarjima jarayonida uchraydigan nozikliklar hamda leksik tafovutlar

Isajon Sultonning “Avliyo” hikoyasi misolida tahlil qilinadi. Asarning inglizcha tarjimasidagi lingvistik, sintaktik, idiomatik va stilistik farqlar misollar asosida o‘rganiladi. Badiiy tarjimada so‘z tanlovi, gap tuzilishidagi tafovutlar, madaniy va milliy ramzlarning ahamiyati yoritiladi. Tarjimonning vazifasi — o‘z xalqining milliligi, dunyoqarashi, psixologiyasi va ma’naviy o‘ziga xosligiga putur yetkazmagan holda asarni jahon adabiyoti miqyosida taqdim etishdan iborat ekani ta’kidlanadi. Maqolaning asosiy qismida badiiy tarjimada madaniy kontekst va milliy koloritni saqlagan holda asarning semantik va estetik mohiyatini o‘quvchiga to‘laonli yetkazish masalasi yoritiladi. Ushbu masala qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohasida dolzarb bo‘lib, bugungi globalashuv davrida o‘zbek adabiyotining durdonalarini jahon jamoatchiligiga tanishtirishda uning o‘ziga xos milliy ruhini asrab qolish hamda sifatli tarjimalar orqali o‘quvchilar doirasini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Isajon Sultonning “Avliyo” hikoyasidagi obrazlar, ramzlar, mazmun va mohiyat badiiy adabiyotda keng tahlil qilingan bo‘lsa-da, uning inglizcha tarjimasining badiiy va lingvistik tahlili hanuz to‘liq yoritilmagan. Ushbu maqolada aynan hikoyaning inglizcha tarjima nazariyasi va badiiy-lingvistik tamoyillar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Asosiy maqsad — badiiy tarjima jarayonida paydo bo‘ladigan turli madaniy va lingvistik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularning muqobil yechimlarini taklif etishdir. Natijada, sifatli tarjima orqali Isajon Sultonning “Avliyo” hikoyasi ko‘plab o‘quvchilarga yetib borib, jahon miqyosida tanilgan asarga aylangan. **Kalit so‘zlar:** badiiy tarjima; madaniy qatlam; madaniy kod; lingvistik tahlil; idiomatik ifodalar; ramziy ma’nolar; sintaktik tahlil; tarjimonlik mahorati.

Аннотация. В данной статье тонкости и лексические различия в узбекском и английском языках в художественном переводе рассматриваются через рассказ Исажона Султана "Святой." Лингвистические, синтаксические, идиоматические и стилистические различия в английском переводе произведения анализируются на примерах. В художественном переводе освещается выбор слов, различия в структуре предложений, важность культурных и национальных символов. Отмечается, что задача переводчика — представить произведение мировой литературы, не нанося ущерба национальности, мировоззрению, психологии и духовной самобытности своего народа. В центральном обсуждении статьи освещается вопрос передачи читателю его семантической и эстетической сущности при сохранении культурного контекста и национального колорита в художественном переводе. Этот вопрос актуален в мире сравнительного литературоведения и переводоведения и заключается в том, что сегодня — в эпоху глобализации — при знакомстве мировой общественности с шедеврами узбекской литературы необходимо сохранить ее уникальный национальный дух и расширить охват читателей качественными переводческими работами. Хотя в художественной литературе широко анализируются образы, символы, смысл и сущность рассказа Исажона Султана "Святой", художественный и лингвистический анализ его английского перевода до сих пор освещен частично, и в данной статье проводится сравнительный анализ английского перевода рассказа на основе теории перевода и художественно-лингвистических принципов. Основная цель — выявить, проанализировать и предложить альтернативные решения различных культурных и лингвистических проблем, возникающих в процессе

художественного перевода. В результате качественного перевода рассказ Исажона Султана "Святой" нашел многочисленных читателей и стал известным во всем мире.

Ключевые слова: художественный перевод; лингвистический анализ; идиоматические выражения; культурный слой; культурный код; символические значения; синтаксический анализ; переводческое мастерство.

Kirish

So‘nggi yillarda milliy adabiyotimiz nazm va nasr durdonalari xorijiy tillarga faollik va mohirlik bilan tarjima qilinmoqda. Bu nafaqat o‘zbek milliy adabiyotini dunyoga targ‘ib qilish, xorij kitobxonlarining ham buyuk adabiy merosimizdan bahramand bo‘lishiga imkoniyat yaratish, balki millatlararo madaniy ko‘priklarni mustahkamlashga ham xizmat qilib kelmoqda. Shu o‘rinda o‘zining keng kitobxonlar auditoriyasiga ega bo‘lgan, takrorlanmas falsaviy, ruhiy va ma‘naviy olami bilan o‘ziga maftun qiladigan asarlari bilan adabiyotimizda mislsiz o‘rniga ega bo‘lib kelayotgan Isajon Sultonning asarlari ham ingliz, turk, rus tillariga tarjima qilinib kelinmoqda. Tarjima qilingan asarlari adabiyotshunoslar, tarjimonlar va filologlarning ilmiy ish markazlaridan biriga aylanib, turli tomonlardan tahlil qilinib kelinmoqda (Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor Xayrulla Hamidov [Hamidov 2016], Korea Hankuk Xorijiy tillar universiteti dotsentlari Jeon Min-Chul, Shoira Jumaniyozova [Jeon & Jumaniyazova 2024] va h.k).

Adibning *“Boqiy darbadar”*, *“Genetik”*, *“Alisher Navoiy”*, *“Ozod”*, *“Bilga xoqon”*, *“Ma’suma”* kabi romanlari adabiyotshunoslar va hattoki yosh tilshunoslar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlarga asos bo‘lib kelmoqda va asarlaridagi ma‘naviy poklanish, ruhiy iztirob, insoniylik va hayot mazmunini anglash kabi tushunchalar mavzular markazida turadi [Nazarov 2017: 7]. Ayniqsa, adibning *“Avliyo”* hikoyasi tarjimon, jurnalist va pedagog Shuhrat Sattorov tomonidan mohirona tarjima qilinib, g‘arb adabiyotiga tanishtirildi ([Isajon Sulton. Bog‘i Eram \(hikoya\) \(ziyouz.com\)](#)). Tarjimon o‘z ishiga katta mas‘uliyat bilan yondashgani juda ko‘p bora ta’kidlangan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillari lingvistik va lug‘aviy, semantik va pragmatik tuzilishi, diniy va madaniy qatlamlari orasidagi tafovut tufayli asar tarjimasi hech shubhasiz qiyosiy tahlil markazida turadi. Chunki tarjimon qay darajada mohir va tajribali bo‘lmasin, sharq va g‘arb tili o‘rtasidagi ushbu tafovut asarni g‘arb kitobxoniga yetkazib berishda ma’lum bir qiyinchiliklar, muammolar va kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad ham uning stilistik vositalari, semantik qatlamlari va tarjima jarayonida kelib chiqadigan lingvistik o‘zgarishlarni aniqlash, izohlash va tilshunoslik muammolarini yoritib berishdir.

Nazariy qism. Tarjima jarayoni, ko‘p hollarda, asarning bir til shaklidan boshqasiga o‘tkazilishi deb qaraladi. Biroq bu jarayon aslida bundan ancha murakkabroq — u nafaqat tilni, balki asarning ichki tuzilmasini, hissiy qatlamlarini, madaniy kontekstini ham boshqa tilga ko‘chirish san’atidir. Tarjimashunos E. Ochilov bu borada shunday fikr bildiradi: *“Badiiy tarjima — ikki uslubning birikishidan hosil bo‘lgan yangi adabiy hodisa. Tarjima jarayonida ikki ijodkor o‘z uslubi bilan*

ro‘baro‘ keladi, bu tanishuv esa o‘zaro singib ketish holatida namoyon bo‘ladi” [Ochilov 2014].

Yozuvchi va tarjimon o‘rtasidagi ko‘rinmas, ammo sezilarli hissiy aloqaning kuchi asarning boshqa til kitobxoniga qanday yetib borishini belgilaydi. Bu jihatni o‘zbek adabiyotining zamonaviy vakillaridan biri — Isajon Sultonning “Avliyo ota” hikoyasi tarjimasi misolida ko‘rib chiqish mumkin. Professor X. Hamidov ta‘kidlaganidek, Isajon Sultonning asarlari milliylikka boy, tili sodda va xalqchil bo‘lib, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov kabi ustoz adiblarning uslubini eslatadi. Uning so‘z tanlovi o‘ta ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilgan bo‘lib, har bir ibora xalq hayoti va muloqotidan tabiiy tarzda olingan [Hamidov 2016: 120].

Isajon Sultonning “Avliyo” hikoyasi tarjimon, jurnalist va pedagog Shuhrat Sattorov tomonidan ingliz tiliga o‘girilgan [Sattorov 2021]. Hikoya ruhiy izlanish, xotira, hayot va o‘lim haqida chuqur mulohazalarni o‘zida mujassam etadi. Tarjimada bu jihatlar e‘tiborga olingan bo‘lsa-da, ikki til va madaniyat o‘rtasidagi tafovutlar ayrim badiiy nozikliklarning yo‘qolishiga olib kelgan. Bu tafovutlar tarjimaning lingvistik va adabiy jihatlarini tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Asosiy qism

Lingvistik tahlil. O‘zbek tili o‘zining boy leksik zaxirasi bilan ajralib turadi. Hikoyada uchraydigan “duo”, “boychechak ifori”, “Avliyo ota” kabi iboralar nafaqat semantik, balki ruhiy va hissiy yukni ham o‘zida mujassam etgan. Ingliz tilidagi tarjimada bu iboralar “blessing”, “sweet-scented smell of snowdrops”, “Father Saint” tarzida berilgan. Bu tarjimalar grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi badiiy noziklik va madaniy konnotatsiyani to‘liq aks ettirmaydi. Tarjimada badiiy ifodadan ko‘ra funksional aniqlik ustunlik qilgan. Masalan, “boychechak ifori” iborasi o‘zbek tilida bahorning ilk nafasini, bolalik xotiralarini, ruhiy poklikni ifodalaydi. Ingliz tilida “snowdrop fragrance” deb berilgan bu ibora semantik jihatdan mos bo‘lsa-da, o‘zbekcha ifodadagi hissiy chuqurlikni yetkazib bera olmaydi [Newmark 1988].

Sintaktik tahlil. O‘zbek tilining sintaktik xususiyatlaridan biri — uning uzun, oqimli, badiiy jihatdan boy gap tuzish imkoniyatidir. Bu holat, ayniqsa, og‘zaki hikoya qilish an‘analarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Matnlar ko‘pincha bir necha qatlamli, murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, o‘quvchining hissiy holatini chuqur aks ettirishga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi tarjimalarda esa, aksincha, gaplar qisqa, segmentli shaklda beriladi [Alimuxammedov 1947]. Bu, albatta, o‘qishni yengillashtiradi, lekin ba’zida matnning ichki ritmini, hissiy oqimini buzishi mumkin.

Masalan, quyidagi parcha orqali bu farqni ko‘rish mumkin:

O‘zbek tilida: “Xotiralar... xotiralar shamol kabi yopirilar, uzoq-uzoqlardan, yillarning muzlagan qatlamlari orasidan boychechak ifori kabi ufurayotgan yoqimli va armonli kechinmalarning yodini olib kelib...”

Bu jumla o‘zbek tilida bir necha tasviriy qatlamni o‘zida mujassam etgan: xotira, tabiat, vaqt va hissiyot bir butun oqimda berilgan.

Ingliz tilida esa: “Memories... memories were rushing towards him; from distant places, from the frozen layers of the years they were bringing recollections of welcome and truthful experiences...”

Tarjima mazmunni yetkazib beradi, lekin asl matndagi musiqiy ritm, poetik oqim va hissiy chuqurlik sezilarli darajada yo‘qoladi. Bu holat tarjima tilining sintaktik chegaralari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Idiomatik ifodalar. Tarjima jarayonida eng ko‘p muammoga duch kelinadigan jihatlardan biri — bu idiomatik ifodalar va madaniy konnotatsiyalarni boshqa tilga o‘tkazishdir. Har bir til o‘ziga xos xalqona iboralar, og‘zaki nutq elementlari va madaniy ramzlar bilan boyitilgan. Ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish ko‘pincha ma‘noni yo‘qotishga olib keladi. Masalan:

O‘zbek tilida: “Ro‘zg‘or degan yov naqadar qudratli!”

Bu ibora o‘zbek tilida ro‘zg‘orni “yov”, ya‘ni dushman sifatida tasvirlaydi. Bu yerda ro‘zg‘or insonning ruhiy hayotiga tahdid soluvchi kuch sifatida ko‘rsatilgan.

Ingliz tilida esa: “There is another powerful force — the hearth and family, a severe adversary!” deb tarjima qilingan. Tarjima mazmunan to‘g‘ri, lekin “yov” so‘zining emotsional kuchi va madaniy o‘ziga xosligi yumshatilgan. “Severe adversary” iborasi umumiyroq, hissiy jihatdan kamroq ta‘sirli va bu holat tarjimada madaniy qatlamni to‘liq saqlash qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Ramzlar. Isajon Sultonning “Avliyo” hikoyasida e‘tiqod, xotira, qarilik va ruhiy yuksalish kabi mavzular markaziy o‘rin tutadi [Kamilova 2024]. Tabiat tasvirlari — shamol, boychechak, muzli manzaralar — qahramonning ichki kechinmalarini ramziy tarzda ifodalaydi. O‘zbek tilida: “Shabada siypalab-quritib, go‘yo bu odamni yupatar edi.” Ingliz tilida: “The breeze... brushing his face, drying the moisture of his tears. As if it was consoling him.”

Bu misolda tabiatning yupatuvchi kuchi tasvirlangan. Inglizcha tarjima esa bu mazmunni yetkazib bersa-da, ammo o‘zbek tilida bu ruhiy yaqinlik va shabadaning inson qalbiga ta‘siri yanada chuqurroq seziladi.

Hissiyot tasviri. Abdulqodirning hayotiy yo‘li — bolalikdagi duo, o‘lim oldidagi mulohazalar — hikoyaning asosiy dramatik chizig‘ini tashkil etadi. O‘zbek matnida bu o‘zgarish ichki monologlar, sezgi tafsilotlari orqali chuqur ifodalanadi.

O‘zbek: “U yig‘lar edi! Bu yo‘llardan ko‘p yillar avval bobosi bilan o‘tgan...”

Ingliz: “He was crying! Many years ago, when he was a child he had walked through these same pathways with his grandpa...”

Tarjimada qahramonning xotirlayotgani seziladi, lekin asl matndagi yig‘ining ruhiy va vaqtli kontekstdagi og‘irligi, hissiy cho‘qqisi sezilmaydi. Bu holat tarjimada hissiy qatlamni saqlash muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Voqealar oqimi. O‘zbekcha hikoya ruhiy safar sifatida qurilgan: o‘tmish va hozirgi, tush va haqiqat o‘rtasidagi o‘tishlar silliq, oqimli. Inglizcha versiyada bu tuzilma saqlangan, ammo ba‘zida so‘z tanlovi ritmni buzadi. Masalan, tush sahnasi:

O‘zbek tilida: “Eshik ochildi... Ammo, yo alhazar, ichkari... qahraton qish edi!”

Ingliz tilida: “It opened. But, oh, God, inside... A winter of severe frost rules there!”

Inglizcha tarjimada hayratlanganlik holati ifodalangan, ammo “yo alhazar” kabi dramatik ohanglar “Alas!” yoki “Woe!” tarzida berilsa, she’riy dramatism yanada yaxshiroq saqlanardi. Bu holat esa tarjimada stilistik moslik va poetik ohangni saqlash mahoratini ko’rsatib beradi.

Tarjima usullari tahlili: so’zma-so’z tarjima. Adabiy tarjima jarayonida tarjimon tildan tilga so’zma-so’z o’girish uslubini ham qo’llaydi va bu asosan asar ma’nosini saqlash uchun xizmat qiladi. Ammo aynan shu uslubda emotsional holat va ohang kuchsizlanishi mumkin [Sobirova 2025: 55]. *Misol:*

O’zbek tilida: “Faqat, Avliyo otagina e’tiqodda sobit edi”.

Ingliz tilida: “Only Father Saint is consistently true”.

Tarjima grammatik jihatdan to’g’ri qilingan va so’zlar asar ohangi va mazmuniga hamohang tuyuladi. Biroq mazmun saqlanib qolingan bo’lsa-da, *consistently true* iborasi *sobit* so’zining to’liq leksik ma’nosini chiqarib berolmaydi. Ya’ni *sobit* bu ruhiy qat’iyatlilik, barqarorlik va e’tiqodga sodiqlikni bildirib, doimiy rostgo’y va haqgo’y bo’lish kabi tushunchalardan ancha kuchliroq. Bu tarjimadagi tafovut esa o’zbek kitobxonini his qilgan ruhiy tayanch tuyg’usini chet el kitobxoniga xuddi shu darajada yetkazib berolmasligi mumkin.

Bundan tashqari, inglizcha “Father Saint is consistently true” gapida asl matndagi chuqur hurmat ma’nosini yetkazish ham tarjimon uchun yanada murakkabroq. Chunki o’zbek tilidagi *Avliyo ota* — u ruhiy sobitlik timsoli bo’lib, shunchaki oddiy obraz emas. Uning e’tiqodi nafaqat ishonchli, balki muqaddas. Inglizcha tarjima esa bu ruhiy kuchni yumshatib yuboradi, madaniy qatlamlarni yo’qotadi [Qudratova 2025: 98]. U e’tiqodda mustahkam va aziz zot deb bilingan va bu inglizcha tarjimada biroz kuchsizlanib, madaniy qatlamning to’liq ifodalanmasligiga olib kelgan. Shuning uchun ham so’zma-so’z tarjima ko’p hollarda lozim bo’lsa ham, u tarjimonga badiiy noziklik va emotsional holatni saqlashda ancha qiyinchiliklar tug’diradi. Ayniqsa, *Avliyo ota* kabi muqaddas timsollarda bu yanada sezilarli bo’ladi.

Isajon Sulton asarlari tarjimonga bu kabi ko’plab qiyinchiliklar tug’dirishi tabiiy, chunki uning asarlari nafaqat milliy ruhni, balki nozik madaniy qatlamlarni ham mohirona ifodalaydi. Tarjimon esa bu madaniy muvozanatni saqlash uchun doimo tanlov oldida turadi: yoki asarni ingliz tilida tabiiy yaralishi uchun harakat qiladi, yoki o’zbek ruhiyatini yetkazib berish uchun ingliz tili qoidalarini moslashtiradi [Solijonov 2017: 55]. Va bu jarayon yana bir bor tarjima bu san’at ekanligini eslatadi.

Moslashtirish. Tarjimon ingliz kitobxoniga tanish bo’lgan va uning dunyoqarashiga yot bo’lmagan so’z yoki terminlar orqali hikoyadagi ibora ma’nosi moslashtiradi, lekin aynan o’zbek kitobxonini his qiladigan milliy kolorit va ichki ruhiyat tarjimada to’liqligicha aks eta olmaydi. Tarjimada bu kabi madaniy qatlam yo’qolishlari tarjimashunoslik olamida necha yillardan buyon o’z javobini topa olmagan savol va yechimini topmagan murakkablikdir.

Isajon Sultonning “*Avliyo*” hikoyasidagi juda ko’plab iboralar, o’xshatishlar va badiiy san’atlar aynan milliy o’ziga xoslikni namoyon qiladi va bu tarjimonga yana bir karra ko’proq mas’uliyat yuklagan. Bu

milliy ruhiyatni yetkazib berish qiyin tanlovni yuzaga keltiradi: ham asar mazmunini xorij kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazib berish, ham muallif uslubi va ovozini saqlab qolish.

Tarjima jarayonida tarjimon o'zbekcha matndagi iboralarni saqlab qolish uchun uni ingliz tiliga moslashtirgan. Ya'ni iborani so'zma-so'z emas, balki xorijiy til kitobxoniga uchun tushunarli bo'lishi uchun ingliz tildagi shu ma'noni beruvchi so'zlardan qo'llashga harakat qilgan. Bunday yondashuv maqbul yo'l deb hisoblansa-da, u o'zbek tilidagi boy emotsional holat va madaniy tushunchani to'liq yetkazib bera olmaydi va so'zning ruhiy yuki kamayadi [Fuzaylova 2024: 176]. Masalan:

O'zbek tilida: "Ro'zg'or degan yov naqadar qudratli!"
Ingliz tilida: "There is another powerful force — the hearth and family, a severe adversary!"

O'zbek tilida "yov" so'zining lug'aviy ma'nosiga raqib, halokat keltiruvchi kuch yoki dushman deb izoh beriladi. Bu so'z ingliz tiliga "severe adversary" tarzda o'girilgan, bu esa o'zbek mentalitetida oila boshiga ro'zg'or kabi katta mas'uliyat va yuk soluvchi tushunchaning ruhiy bosimini yumshatgan. Aynan ushbu moslashtirish holati, milliy konsept ma'nosini tushuntirib bera olsa-da, kontekstdagi asl mohiyati va u sabab bo'ladigan keskin dramatik holatlarni to'liqligicha aks ettira olmaydi.

Tashlab ketish. Ba'zida tarjimada metaforalar yoki tasvirlar soddalashtiriladi yoki butunlay olib tashlanadi. Bu matnni qisqartiradi, lekin ramziy va hissiy chuqurlikni kamaytiradi.

Misol:

O'zbek tilida: "Yo alhazar, ismi nima edi u ilk muhabbat sanamining?!"

Ingliz tilida: "But, heart alive, what was the name of that angel of love?!"

"Yo alhazar" — bu o'zbek tilida chuqur afsus, iztirob ifodasi. Ingliz tilida "heart alive" deb yumshatilgan, bu esa asl matndagi hayrat va armon ohangini to'liq aks ettirmaydi. Bu ibora tarjimada soddalashtirilgan.

Tarjimadagi yondashuvlardan yana biri bu kuchli ifodalar yoki tamomila ingliz tili kitobxoniga yot bo'lgan ibora yoki so'zlarni soddalashtirish yoki umuman olib tashlashdir. Bu badiiy tarjimada katta yo'qotish hisoblansa-da, har qanday tarjima ishida kamida 2-3 marta takrorlanadigan holatdir [Bassnett 2002]. Buning natijasida soddalashtirilgan madaniy tasvir yoki metaforalar matnning qisqarishi va emotsional ta'sirni sezilarli darajada kamaytiradi.

Isajon Sultonning "Avliyo" hikoyasida bu yondashuvning ta'siri quyidagi misolda yaqqol ko'rinadi: O'zbek tilida: "Yo alhazar, ismi nima edi u ilk muhabbat sanamining?!" Ingliz tilida: "But, heart alive, what was the name of that angel of love?!"

O'zbek tilidagi "Yo alhazar" iborasi armon, hayrat, iztirob va chuqur afsusni ifodalaydi. Bu so'z turli kuchli ruhiy holatlarni tasvirlashda ishlatilib, muhabbat iztiroblari yoki unutilmas hislari, o'tmishdagi armon, sog'inch kabi turli hissiyotlarni aks ettiradi [Sultonova 2020: 102]. Badiiy tasvirga esa o'zgacha bo'yqadorlik va milliy identiklikni ham bag'ishlaydi. Bu so'z ingliz tiliga "*heart alive*" tarzida o'girilib, grammatik va semantik jihatdan to'g'ri tanlov bo'lsa-da, undagi dramatik

ohang, ichki hissiyotni ta'sirli darajada saqlab qololmaydi. Ya'ni "*Yo alhazar*" iborasida yashiringan armon, hayrat va ichki iztirobni bildiruvchi ma'no asliga nisbatan birmuncha yumshatilgan va bu asarning ta'sir kuchini kamaytirib, kitobxonning hissiy kechinmalarni to'liq his eta olmasligiga olib keladi. Aslida ushbu hikoya o'zining badiiy o'xshatishlarga boyligi, qahramon ruhiy holatining nozik jihatlari (ayniqsa, tabiatga bog'lab) mohirona tasvirlangani va milliy iboralar orqali uni kitobxonlarga yetkazib bergani bilan alohida ajralib turadi.

Quyida yana bir misol:

O'zbek tilida: "U yuragining tub-tubidan bir nido tortdi: "Ey hayot, nega bunchalar murakkabsan?!" Ingliz tilida: "He sighed deeply and said, Life is complicated".

Hikoyada "*yuragining tub-tubidan nido tortdi*" iborasi ichki hayqiriq, hissiy og'riq va iztirobni bildiradi va bu ingliz tiliga "*sighed deeply*" tarzda o'girilgan. Ingliz tilidagi so'zlar birmuncha soddaroq tuyuladi hamda qahramonning ichki ruhiy holati, undagi dard va iztirobni kitobxonga to'liqligicha yetkazib bera olmasligi mumkin. Xuddi shunday sharhni "Ey hayot, nega bunchalar murakkabsan?!" satrining "Life is complicated" deya ifodalanishiga nisbatan ham berish mumkin. Chunki hayotning murakkabligidan nolish, iztirob chekish va nola qilish ma'nolarini beruvchi so'zlarning ham so'roq, ham undov shaklida yanada bo'rttirib berilishi ham aynan undagi ruhiy ta'sir kuchini to'liq ifodalashga xizmat qilgan. Ingliz tilida gapning oddiy darak shaklida o'girilishi va *complicated* so'zi bilan berilishi o'z-o'zidan muallif qalbidagi kechinmani biroz sustlashtiradi.

Madaniy tasvirning yo'qolishi. O'zbek tilida: "Uning ko'zlarida tog'lar ortidagi g'am yuki bor edi." Ingliz tilida: "His eyes were full of sadness".

Hikoyada berilgan "*tog'lar ortidagi g'am yuki*" bu qahramonning psixologik va ruhiy holatini poetik metafora orqali tasvirlab, ham dardning og'irligi va iztirobning davomiyligini bildiradi. Bu inglizchaga qisqa qilib "*sadness*" so'zi bilan tasvirlangan va poetik va madaniy tasvirning ta'sirchanligini kamaytirgan. Tarjimon asarning badiiy va ruhiy ta'sirini saqlab qolish kerakligini anglagan holda, tashlab ketish usuliga juda kam murojaat qilgan. Chunki tarjimadan asosiy maqsad ham asar uslubi va ohangini saqlagan holda yetkazib berishdir [Salomov 2022]. Lekin mana shu bir necha tashlab ketilgan satrlar bu shunchaki so'zlar emas, balki kitobxonga yetib borolmagan kechinmalardir va albatta bunday sanoqli satrlar ham tahlilga zaruriyat tug'diradi.

Atamalarni saqlash. Hikoyadagi atamalarni saqlash — bu tarjimonning muallifga va asarning madaniy g'oyasiga bo'lgan sadoqatini ko'rsatib beradi. Aynan bu hikoyada ham ba'zi milliy mentalitetimiz va qadriyatlarimizga xos atamalar tarjimasi o'zidek o'girilgan va bu uning tabiiyligini, asarning asl ohangi, milliy ruhi va muallif ovozini saqlashga katta yordam bergani ta'kidlanadi [Kuchimov & Yuldoshova 2023: 74].

Masalan:

O'zbek tilida: "Oh, pirim, bolamga duo qiling!" Ingliz tilida: "Oh, my pir, pray for my child, bless him!"

"Pir" so'zi — muqaddas inson, ulug' zot va ruhiy ustoz ma'nolarini anglatib, o'zbek kitobxoniga boshqa asarlar orqali ham tanish bo'lgan

iboradir. Ingliz tilida esa tarjima qilinmasdan o'z holicha qoldirilib, asarning milliy koloritini saqlaydi hamda milliy ruhni singdiradi. Chunki *pir* shunchaki ustoz emas, balki ruhiy yo'l boshlovchi, ezgulikka chorlovchidir va bu Avliyo otaning xalq hurmat-izzatiga erishgan ulug' zot ekanligini ko'rsatib beradi. Bu so'z milliy madaniyatimizda necha asrlardan beri qo'llanilib kelayotgan, ruhiy va diniy konnotatsiyalarga egadir [Habibullayeva 2021: 120].

Agarda tarjimon so'zni o'z holicha saqlamay, uni ingliz kitobxoniga moslashtirish uchun *holy man* yoki *spiritual guide* deb o'g'irganida, u ko'proq g'arb adabiyotiga mos bo'lib qolishi va sharq falsafasi ta'sirini kamaytirishi mumkin edi. Bu holatni to'liq anglagan tarjimon oqilona qaror chiqargan va ma'naviy kontekstni o'zgarishsiz targ'ib qilgan. Ammo bu yondashuvning ta'kidlab o'tilishi kerak bo'lgan o'ziga xos tomoni bor. Bu ingliz kitobxonining *pir* so'zini qanchalik kutilgan darajada anglab yetishi va kontekstda uning yaxlit ma'nosini tushunib olishi bilan bog'liq. Bunday holda eng maqbul yo'llardan biri izohli tarjima — kontekstual tushuntirish yoki izohli lug'atda alohida ma'nosini berib o'tish joiz bo'ladi [Ibragimova 2024: 121].

Xulosa

Xulosa o'rnida aytganda, badiiy tarjima bu nafaqat til o'zgarishi, balki asarning uslubi, madaniy qatlamlari va ruhini boshqa bir tilga ko'chirish jarayonidir. Bu jarayonda xalq afsonalari, rivoyatlar, islomiy hikoyalar, turli fantastik motivlar, mifologik obrazlar, zamonaviy ma'lumotlar aqlni lol qiladigan syujetlar o'rin olgan Isajon Sulton asarlari tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik tahlili uchun juda o'rinli va munosib tanlov bo'ladi. Yuqorida "Avliyo" hikoyasi misolida ko'rib chiqqanimizdek, ushbu tarjimonlik ishida tarjimon har bir so'z yoki ibora ortidagi hissiyotni, ichki kechinma, ruhiy holat va ramzlarni ham ingliz tilida kitobxon qalbiga chuqur ta'sir eta oladigan qilib yetkazib berishga harakat qilgan. Ammo o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan leksik boyligi, gap tuzilishi va madaniy tamoyillari tarjima qilish mobaynida ba'zi yo'qotishlarga olib keladi. Shuning uchun ham har qanday tarjimonning mahorati aynan shu nozikliklarni imkon boricha saqlab qolish va asar ruhini boshqa til kitobxonlariga aslidagidek ulashishga bog'liq bo'lib qoladi.

Maqola adabiy stilistika va tarjima lingvistikasi kesishmasida tahlil qilinib, adabiy asarning ingliz tilida qay darajada o'zgarish va yo'qotishlarga uchrashini ko'rsatib, milliy asarlarimizni dunyo adabiyoti sahniga munosib tarzda tanishtirishimizda o'z dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, tarjimonning ijodiy yondashuvi, tarjima yo'li, madaniy kodlar va milliy koloritni ifodalashdagi ehtiyotkorligi va ikki til imkoniyatlaridan mohirona foydalanish darajasi asosiy markaziy masala sifatida yoritildi.

Kichik, ammo maqsadli tahlil natijalariga ko'ra, hikoyadagi badiiy vositalar, emotsional bo'yoqdorlik, ya'ni xalqona iboralar, metaforalar va diniy ramzlar to'liq saqlanib qolmagan bo'lsa-da, asosiy g'oyasi, ruhiyati va syujet dinamikasi yetarli darajada yetkazib berilgan, tarjimadan ko'zlangan asosiy maqsadga erishilgan. Zero, badiiy tarjima jarayoni turli millat va madaniyatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tab kelar ekan, bu

ko‘prikni yanada davomiy va mustahkam qilish uchun tarjimonlik sohasidagi izlanishlar hali uzoq yillar davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Алимухаммедов Н. Таржима санъати тўғрисида айрим мулоҳазалар. // Шарқ юлдузи, 1947, № 1. — Б. 58–64.
- Bassnett S. Translation Studies. — 3rd ed. — London: Routledge, 2002. — 188 p.
- Султон И. Танланган асарлар (1-жилд). Роман ва қиссалар. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2017. — ISBN 978-9943-03-977-3. — 392 б.
- Fuzaylova N. A. Analysis of the expression and specific characteristics of neologisms in translation. // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. — 2024. — T. 21, № 2. — B. 175–180. — URL: <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109> (murojaat sanasi: 14.01.2025).
- Ҳамидов Х. Содда услубнинг таржимадаги мураккаб талқини (Исажон Султоннинг “Шамолли кеча” ҳикояси туркча таржимаси мисолида). — Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2016. — 223 б.
- Habibullayeva S. The linguopoetic function of movements in the stories of Isajon Sultan. // ISJ Theoretical & Applied Science. — 2021. — № 5 (97). — P. 119–122. — URL: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-97-20> (murojaat sanasi: 14.01.2025). — DOI: 10.15863/TAS.2021.05.97.20.
- Ibragimova D. I. An analysis of Isajon Sulton's historical prose: Era, heroes, themes, and ideas. // Mental Enlightenment Scientific–Methodological Journal. — 2024. — T. 5, № 5. — P. 120–127. — DOI: 10.37547/mesmj-V5-I5-16.
- Jeon M., Jumaniyazova S. Literary transediting as a collaborative process between author and translator: A textual analysis of a transedited Uzbek novel “The Eternal Wanderer”. // INContext. — 2024. — T. 4, № 1. — P. 53–80. — DOI: 10.54754/incontext.v4i1.79.
- Kamilova N. The issue of the literary synthesis of religious views in the story “Sophia” by Isajan Sultan. // Journal of Advanced Linguistic Studies. — 2024. — T. 11, № 2 (July–December).
- Kuchimov U., Yuldoshova S. The concept of a motif in fantasy works and its typological study. // Foreign Linguistics and Linguodidactics. — 2023. — T. 1, № 2. — P. 72–76. — DOI: 10.47689/2181-3701-vol1-iss2-pp72-76.
- Назаров Б. Истеъдод манзалари. // Исажон Султон насри бадияти. — Тошкент: Турон замин зиё, 2017.
- Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. — Тошкент: ТошДШИ, 2014. — 123 б.
- Кудратова С. Исажон Султон ижодида миллий рух. // Science and Innovation in the Education System: International scientific-online conference. — Навоий: А. Навоий университети, 2025. — С. 98–106. — DOI: 10.5281/zenodo.14524796.
- Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. — Тошкент, 2022. — 222 б.
- Сатторов Ш. Translation challenges in Isajon Sulton's “Avliyo ota”. // Uzbek-English Literary Studies. — 2021. — T. 1, № 1. — P. 33–41.

- Собирова Г. А. Назария ва амалиётда таржима усуллари: қиёсий шарҳ. // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. — 2025. — № 6 (6 июн). — С. 54–57.
- Солижонов Й. Нияти қутлуғ адиб. // Исажон Султон насри бадияти. — Тошкент: Турон замин зиё, 2017. — 155 б.
- Султонова Н. Н. Исажон Султон романларида бадиий компонентлар модификацияси. — Тошкент, 2020. — 128 б.
- Newmark P. A Textbook of Translation. — London: Prentice Hall, 1988. — 292 p.

References

- Alimukhammadov, N. (1947). *Sharq yulduzi*, No. 1, pp. 58–64. (In Uzb.)
- Bassnett, S. (2002). *Translation Studies* (3rd ed.). London, Routledge.
- Sulton, I. (2017). *Tanlangan asarlar. 1-jild. Roman va qissalar* (Selected works. Vol. 1. Novels and stories). Tashkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. ISBN 978-9943-03-977-3. (In Uzb.)
- Fuzaylova, N. A. (2024). *Taʼlim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 21(2), 175–180. Available at: <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109> (accessed 14.01.2025). (In Uzb.)
- Khamidov, Kh. (2016). *Sodda uslubning tarjimadagi murakkab talqini (Isajon Sultonning “Shamolli kecha” hikoyasi turkcha tarjimasi misolida)* (The complex interpretation of simple style in translation: On the example of the Turkish translation of Isajon Sulton’s “Shamolli kecha”). Samarkand, SamDU nashriyoti. (In Uzb.)
- Habibullayeva, S. (2021). *ISJ Theoretical & Applied Science*, No. 5(97), 119–122. Available at: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-97-20> (accessed 14.01.2025). <https://doi.org/10.15863/TAS.2021.05.97.20>.
- Ibragimova, D. I. (2024). *Mental Enlightenment Scientific–Methodological Journal*, 5(5), 120–127. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I5-16>.
- Jeon, M., & Jumaniyazova, S. (2024). Literary transediting as a collaborative process between author and translator: A textual analysis of a transedited Uzbek novel “The Eternal Wanderer”, *INContext*, 4(1), 53–80. <https://doi.org/10.54754/incontext.v4i1.79>.
- Kamilova, N. (2024). *Journal of Advanced Linguistic Studies*, 11(2), July–December.
- Kuchimov, U., & Yuldoshova, S. (2023). The concept of a motif in fantasy works and its typological study, *Foreign Linguistics and Linguodidactics*, 1(2), 72–76. <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss2-pp72-76>.
- Nazarov, B. (2017). *Isteʼdod manzaralari* (Landscapes of talent), in *Isajon Sulton nasri badiyati* (The artistry of Isajon Sulton’s prose). Tashkent, Turon zamin ziyo. (In Uzb.)
- Ochilov, E. (2014). *Tarjimashunoslikning nazariy masalalari* (Theoretical issues of translation studies). Tashkent, ToshDSHI. (In Uzb.)
- Qudratova, S. (2025). *Science and Innovation in the Education System: International scientific-online conference*, 98–106. Navoiy, Alisher Navoiy University. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14524796>. (In Uzb.)
- Salomov, Gʻ. (2022). *Tarjima nazariyasiga kirish* (Introduction to translation theory). Tashkent. (In Uzb.)

- Sattorov, Sh. (2021). Translation challenges in Isajon Sulton's "Avliyo ota", *Uzbek-English Literary Studies*, 1(1), 33–41.
- Sobirova, G. A. (2025). Nazariya va amaliyotda tarjima usullari: qiyosiy sharh (Translation methods in theory and practice: A comparative review), *Bukhara State University Scientific Bulletin*, No. 6 (June 6), 54–57. (In Uzb.)
- Solijonov, Yo. (2017). *Niyati qutlug' adib* (A writer with blessed intentions), in *Isajon Sulton nasri badiyati* (The artistry of Isajon Sulton's prose). Tashkent, Turon zamin ziyo, p. 155. (In Uzb.)
- Sultonova, N. N. (2020). *Isajon Sulton romanlarida badiiy komponentlar modifikatsiyasi* (Modification of artistic components in Isajon Sulton's novels). Tashkent. (In Uzb.)
- Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London, Prentice Hall.